

Tong yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:47 (67212)
2018-yil 19-noyabr

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092

43-MAKTAB



«Porla, qalbim yulduzi,
Yuksalgin, «Tong yulduzi»,

deya she'r o'qidi «Boyligni bolalikdan asrang» tanlovi g'olibi,
G'ijduvon tumanidagi 43-umumta'lim maktabining 4-«B» sinf
o'quvchisi Avazbek Boltayev.

KO'HNA KENTNING BILIMDON YOSHLARI

Buxoro – buyuk allomalarga beshik
bo'lgan muqaddas zamin. Bu qutlug'
go'shaga har gal yo'limiz tushgani-
da, qalbimizni beixtiyor ajib hislar
chulg'ab oladi. Ayniqsa, buxorolik
ilmga chanqoq, tashabbuskor, yan-
gilikka intiluvchan yoshlar bilan
suhbatlashsangiz, yurtimiz kelajagi
porloq, ertasi bugunidan-da yorug'
ekaniga amin bo'lasiz.

2-bet

– Men «G'uncha» jurnalida e'lon qilin-
gan «Kitobga qo'l tutay» tanlovi g'olibi
bo'ldim, – deydi Shofirkon tumanidagi
40-umumta'lim maktabining 3-sinf
o'quvchisi Mohinabonu Rustamova.

Tel:

(71) 244-63-08;

www.tongyulduzi.uz;

e-mail: info@tongyulduzi.uz;

telegram: t-me/tongyulduz

Sevimli «Tong yulduzi»
gazetasiga 2019-yil uchun
obuna bo'lishga shoshiling!

Nashr
ko'rsatkichi
198

KO'HNA KENTNING BILIMDON YOSHLARI

Buxoro viloyati, Shofirkon tumanidagi 40-umumta'lim maktabi tomon yo'l olarkanmiz, har bir xonadon darvozasi oldida o'ndan ziyod teraklarni ko'rib, hayron qoldik.

Teraklar po'stlog'idan tozalanib, bog'lam-bog'lam qilib tikka turg'azib qo'yilgani esa go'yo san'at asari edi. «40-umumta'lim maktabi Terakchilar qishlog'ida joylashgan-da», dedi hayratimizni sezgan Shofirkon tuman xalq ta'limi bo'limi ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha mudir o'rinbosari Dilshod Jo'rayev.

Shu pallada sevimli shoirimiz, O'zbekiston Qahramoni Erkin Vohidovning «Terak» deb nomlangan she'ri yodimga tushdi:

**Men terakman,
Terakman,
Men hammaga kerakman.
Osmon mening
Yelkamda,
Men olamga
Tirgakman.**

Bu she'rdagi «Men hammaga kerakman» degan misralar Terakchilar qishlog'i yoshlarining shiori edi, nazarimda. Xayolimni bizni maktabga olib borayotgan haydovchining gaplari bo'lib yubordi. «Qishloqda bekorchy yo'q. Har bir xonadon egalari tadbirkor. Hatto bolakaylar ham o'qish bilan birga ota-onasiga ko'maklashadi, mehnatning qadriga yetishadi, shu bois, qishlog'imiz tinch, bir-birlari bilan totuv yashashadi. Maktab rahbari Qayum aka Ovloberdiyev mening ham ustozim. O'ttiz yildan beri aynan ushbu ta'lim maskanida direktor bo'lib ishlaydilar. Maktab o'quvchilari har sohada ilg'or», deya faxrlanib qo'ydi.

Xalq ta'limi bo'limi xodimi Dilshod akaning aytishicha, 40-umumta'lim maktabi o'quvchilar soni hisobiga «kichkina» ta'lim maskani hisoblanar ekan. Quvonarlisi, ana shu «kichkina» maktab bizda a'lo natijalari bilan katta taassurot qoldirdi. «Kichkina demang bizni», degan maqol aynan shu maktab o'quvchilari uchun aytilgandek edi, go'yo.

Maktab faoliyati bilan yaqindan tanishganimizda shunga guvoh bo'ldikki, bilim dargohi rahbari Qayum aka Ovloberdiyev chindan ham jonkuyar, o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasi yo'lida qo'ldan kelgancha

harakat qiladigan tinib-tinchimas ustoz ekan.

— O'ttiz yetti yillik ish faoliyatimda birinchi marotaba respublika nashrlarining Bosh muharrirlari o'quvchilarimni taqdirlashdi. Bu uchrashuv nafaqat o'quvchilar, balki biz ustozlarni ham juda xursand qildi, — dedi maktab rahbari hayajonini yashirolmay.

ONAJON

**Bu dunyoda tengi yo'q,
Siz mening onajonim.
Tanimdagi jonimsiz,
Azizim, jonajonim.**

**Mehringiz-la ulg'aydim,
Siz ko'kdagi oyimsiz.
Men jajji tomchi bo'lsam,
Siz yagona soyimsiz.**

**Dilnoza SHAROPOVA,
Shofirkon tumanidagi
40-umumta'lim maktabining
4-«B» sinf o'quvchisi**

ONAJONIM OTA-ONALAR MAJLISIDAN KELDILAR,

— deydi G'ijduvon tumanidagi 43-umumta'lim maktabining 4-«B» sinf o'quvchisi Dilnoza Shuhratova.

— Mana hozirgina onajonim o'qituvchimiz o'tkazgan ota-onalar yig'ilishidan qaytdilar. «Qizim, sening nomingni ham a'lochilar safida eshitib, juda quvondim», deb peshonamdan o'pib qo'ydi va «Avazbek ismli sinfdoshing erishgan yutug'idan hamma ota-onalar sevindi», dedilar. Sinfimiz sardori Avazbek Boltayevning «Tong yulduzi» gazetasida e'lon qilingan «Boylikni bolalikdan asrang» tanlovida g'oliblikni qo'lga kiritganini eshitib, hammamiz rosa xursand bo'ldik. Maktabimiz o'quvchilari unga havas bilan qarashdi.

«Sen ham she'rlar mashq qilasan, kel, sen ham «Tong yulduzi»ga yillik obuna bo'lasan, doimiy o'qib bilimningni charxlaysan», deganlarida, bir quvonchimga o'n quvonch qo'shildi. Sevinganimdan sakrab-sakrab o'ynab ketdim.

Jonajon «Tong yulduzi»m, ajab emas, o'rtog'imiz yutug'i bahonasida hali ko'plab tengdoshlarim xonado-

niga kirib borasan. Seni sevib-sevib mutolaa qilamiz.

**PORLA, QALBIM YULDUZI,
YUKSALGIN, «TONG YULDUZI»,
deya she'r o'qidi «Boylikni
bolalikdan asrang» tanlovi g'o-
libi Avazbek Boltayev.**

Gazetamizda e'lon qilingan «Boylikni bolalikdan asrang» tanlovi g'olib Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 43-umumta'lim maktabining 4-«B» sinf o'quvchisi Avazbek Boltayev bilan uchrashganimizda, uning zukkoligi, tirishqoqligini ko'rib, xursand bo'ldik. Avazbek sinf sardori ham ekan. U sinfdoshlari haqida faxrlanib gapirar ekan, tengdoshlari orasida Dilnura Nutfullayeva, Ruxshona Hikmatova, Sevinch Gulmurotova, Jasmina Hikmatovalarning ijodiy ishlari allaqachon Respublika matbuotida chop etilganini ta'kidlab o'tdi va o'zining she'rini zavq bilan o'qib berdi.

TONG YULDUZI

**Har tong erta turaman,
«Tong yulduzi»n ko'raman,
Qo'lga olib avaylab,
Doim o'qib boraman.
She'rlari dona-donam,
Aqlim charxlar yagonam,
Maqolalarim ko'rib,
Quvonar ota-onam.
O'rtoqjon o'qi uni,
Qo'lingdan qo'yma uni,
Porla, qalbim yulduzi,
Yuksalgin, «Tong yulduzi»!**



G'ijduvon tumanidagi 43-umumta'lim maktabi rahbari Azizbek Boltayev tanlov g'olibini esdalik sovg'alari bilan taqdirladi.



Men adabiyot fanini juda yaxshi ko'raman. Xalqimizning sevimli ijodkorlari hayoti va ijodi meni ta'sirlantiradi.

SEVIMLI ADIBIM TAVALLUD TOPGAN KUN

Har yili noyabr oyida qisqa umri davomida millatimiz qalbidan joy olishga ulgurgan ijodkor Usmon Nosimi yodga olamiz. Shoirning lirik she'rlaridan biri «Nil va Rim»ni o'qimagan tengdoshim bo'lmasa kerak. Donolar aytganidek, insonning necha yil umr kechirgani emas, qilgan ezgu ishlari, qanday yashagani ahamiyatga molik. O'z davridagi murakkab vaziyatga qaramay, ijod qilishdan to'xtamagan, tuhmatlarga uchragan

millatdoshimiz bizga boy ijodiy meros qoldira oldi. Biz esa ajdodlarimiz ijodini o'rganishdan va ularga munosib avlod bo'lishdan charchamaymiz.

Mohidil G'AFUROVA,
Toshkent viloyati, Bekobod tumanidagi
31-umumta'lim maktabining
11-sinf o'quvchisi

YUKSALISH SIRI

**Bolalik – beg'uborlik, baxt
bekatining go'zal onlari!**



Bolaligim so'lim qirlar bag'rida o'tdi. Har tong uyg'onganimga, tepaliklarga qarab oshiqardim. Yashillikka burkangan tabiat kishini ohanrabodek o'ziga tortadi. Qirga ko'tarilganda, ko'plar holdan toyib, qiynalardi. Men esa har doim bu yerga kelganimda, o'zimni juda xursand his qilardim. Lekin bu ro'yo emas, chinakam hayot haqiqati edi. O'ylaymanki, muvaffaqiyat cho'qqisi juda baland tepalikka ko'tarilgan mashaqqat.

Qadri osmonlarga teng qadrdonim, muvaffaqiyat cho'qqisidan viqor bilan boqib, hayot tomon asta jilmaying. Ishoning, shunda hammasi boshqacha bo'ladi.

Sizga omad yor bo'lsin!

Barno ORIFJONOVA,
Namangan viloyati, To'raqo'rg'on tu-
manidagi 22-umumta'lim maktabining
11-sinf o'quvchisi

SERJILO ONA TILIM

Angren shahridagi 5-umumta'lim maktabida «Ona tilim jon-u dilim!» mavzusida tadbir bo'lib o'tdi. Milliy ruhda bezatilgan faollar zalidan o'quvchilar o'z o'rinarini egallagach, bir-biridan qiziqarli tomoshalar boshlandi.

7-«A» sinf o'quvchilarining «Avesto»dan Tunyuuq bitiktoshigacha, Navoiydan Islom Karimov hikmatlari-gacha o'zida mujassamlashtirgan chiqishlari 7-«F» sinf qizlarining raqslari davraga zavq olib kirdi.

Muomala madaniyatiga amal qilishni targ'ib qiluvchi sahna ko'rinishi barchani mulohazaga chorlagan bo'lsa, ikki tomonidan ham bir xil o'qiluvchi so'zlar (masalan, amma, tut, ikki va

h.k.) topish musobaqasi yig'ilganlarni ham top-qirlikka undadi.

«O'zbek tili» timsolidagi o'quvchining jonli nasi-hatlari barchaga manzur bo'ldi, iboralar ishtirokidagi «Yaxshidir achchiq haqiqat» nomli sahna ko'rinishi olqishlarga sazovor bo'ldi. Boshlang'ich sinf o'quvchi-lari ham, kichkina demang bizni, deya Muhammad Yusuf, Mirtemir, Rauf Parpi, Kavsar Turdiyeva va Oydin Xojiyevaning ona tilimiz haqidagi she'rlarini yoddan o'qib berishdi.

Mazmunli tadbir Vatan madhini tarannum etuv-chi kuy-qo'shiqlar bilan nihoyasiga yetdi. Lekin o'quvchilar qalbida yangi istak kurtaklari endi ko'z ochgani, shubhasiz. Kim biladi deysiz, kelajakda shu qorako'zlar orasidan Omonulla Ma'dayev, Aziz Qayumov, Ibrohim G'afurov kabi adabiyot namoyan-dalari, olim-u fuzalolar yetishib chiqsa, ajabmas. Biz o'qituvchilarning niyatimiz ham, maqsadimiz ham aslida shu. So'zimni quyidagi she'riy baytlar bilan yakunlasam:

**Shirmoy nonday azizim, asaldayin tansig'im,
Har sahifang bizlarga qutlug' ibrat – dars tilim.
Turkiyzabonlar ichra kamalakday latifsan,
Jilolari ko'z olgan rang-barang atlas tilim!**

Muhayyo JUMAYEVA,
Toshkent viloyati, Angren shahridagi 5-umumta'lim
maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi



AFSONAVIY SHIROQ BILAN UCHRASHUV

Bolakay bu afsonani hali to'liq o'qib chiqmagan bo'lsa-da, asar qahramoni va undagi asosiy voqealar haqida ustozidan eshitgan. Bugun esa u jonli sahnada tarixiy spektaklni tomosha qiladi.

Parada ko'tarilib, musiqa chalindi. Sahnada turli tarixiy an-jomlar bilan bezatilgan bolajonlar qiziqishini ortirdi. Ayniqsa, katta-yu kichik e'tiborini cho'ponlarga xos kiyimdagi Shiroq obrazi tortdi.

Afsonadagi voqealardan sizga yaxshi ma'lum-ki, cho'pon yigit yurtiga Eron hukmdori Doro I ning bostirib kelayotganidan xavotirga tushadi. U jonini fido qilib bo'lsa-da, xalqini omon saqlab qolishni maqsad qiladi. Sahnadagi Shiroq dush-manni mag'lub qilish niyatida burni va qulog'ini kesishlarini so'raganida, yosh tomoshabinlar hayratga tushdi. Aktyorlar o'z rollarini shuncha-lik mahorat bilan ijro etishar ediki, barchaning yuz-ko'zida goh qahramonlarga achinish, goh ular bilan baravar iztirobga tushish holati sezilib turardi. Tomosha so'nggida aql-idrok, iroda, sabr

**Dam
olish kuni Asilxo'ja
onasi bilan poytaxtimizdagi
Respublika Yosh tomoshabinlar
teatriga bordi. Bugun ushbu
maskanda «Shiroq» nomli spek-
taklning ilk namoyishi
bo'lib o'tadi.**

va fidoyilik bilan maqsadiga erishgan bosh qahramonning ishlari-dan ta'sirlanmagan tomoshabin qolmadi. Shu vaqt bolajonlarni «Men-chi, maktabim, oilam, qolaversa, ona yurtim uchun nimalar qilmoqchiman?» de-gan savol o'ylandirgani aniq. Mazkur asami sahnalashtirishdan



asosiy maqsad ham shu edi, aslida. Keling, bu haqda bosh rol ijrochisi, spektakl rejissori Yo'ldosh aka Ermatovning fikrlari bilan tanishamiz.

– Bu asar meni o'quvchilik yillarimdayoq juda ta'sirlantirgan. Ammo o'sha paytda kun kelib, sahnada Shiroq obrazini gavdalantirishim xayolimga ham kelmagan. Bugun ustozlarim – O'zbekiston xalq artisti Dilbar Abdalazizova, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Farida Umarova, Abdumuro'f Qodirov, Shamsiqamar Mansurovalar bilan bir sahnada turib, ushbu spektaklda bosh rolni ijro etdim. Fursatdan foydalanib, yosh tomoshabinlarimizga shuni aytmoqchiman, Shiroq o'z qahramonligi bilan kelajak avlodlarga Vatan uchun fido bo'lib ya-shashni uqtirmoqchi bo'lgan bo'lsa, ajab emas. Shunday ekan, biz ajdodlarimizdan o'mak olib, ularga munosib bo'lmoqqa intilaylik!

Aziz o'quvchim! Sizda ham sevimli qahramon-ingiz Shiroqning boshdan kechirganlarini jonli sahnada ko'rish istagi tug'ilgan bo'lsa, teatrga marhamat qiling! Taassurotlaringiz haqida yozib yuborishni esa unutmang!

Sayyora QODIROVA

HOSILIMIZ MO'L BO'LSIN

Oralaringizda meva-sabzavotlarni xush
ko'rmaydigan, sevib iste'mol qilmaydigan bola
bo'lmasa kerak. Shuning uchun har yili hosil
bayrami yurtimizdagi bog'cha-yu maktablarda keng
nishonlanadi.



Kuni kecha poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi
40-umumta'lim maktabida ana shunday tadbir bo'lib o'tdi.
Unda 2-«V» sinfining iqtidorli o'quvchilardan Qudratillo
Rahmatullayev – bodring, Omina Abdumajidova – pomidor,
Aliakbar Asqarov – olxo'ri qiyofasida namoyon bo'lib, o'zlari
yod olgan she'r va qo'shiqlari bilan davraga fayz kiritdi.
Ayniqsa, Kuzoy – Muslima va barg timsolidagi Zilolaning
chiqishlari yig'ilganlarga xush kayfiyat ulashdi.

Bundan tashqari, o'quvchilarning tarvuz, qovun, baqla-
jon va qovoqlardan tayyorlangan karvin san'ati barchani
hayratga soldi.

Tadbirni tashkillashtirishda boshlang'ich sinf o'qituvchi-
lari – Sevara opa Fatxullayeva, Sevara opa Mirakbarova,
Dilnoza opa Po'latovalarning xizmatlari katta bo'ldi.

Nigora ABDUNAZAROVA

ARNASOYDA BIR MAKTAB BOR

**Aziz bolajonlar! Maktab Siz uchun eng
sevimli maskan ekani, shubhasiz! Axir
bilim olish, ajoyib bayramlar-u turli
to'garak mashg'ulotlarida qatnashish
qaysi o'quvchiga zavq bag'ishlamaydi,
deysiz?!**

Jizzax viloyatining Arnasoy
tumanidagi 8-umumta'lim maktabida
tahsil olayotgan tengdoshlaringiz ham
ta'lim maskanini juda yaxshi ko'rishar ekan.
Chunki o'quv dargohidagi Dilorom Rabbimova,
Gulnoz Umarova kabi jonkuyar ustozlar o'quvchilar
mehrini qozongan. Tajribali muallimlarning darsla-
ridan tashqari, bolajonlar uchun turli fan to'garaklari
tashkil etilgan. Bundan tashqari, maktabda «Kim
ko'p kitob o'qiydi?», «Yosh matematik», «Champion
bo'laman» kabi qiziqarli tanlovlar o'tkaziladi. Bu
kabi bellashuvlarda g'oliblikni qo'lga kiritayotgan
E'zoza Abdug'afforova, Rustamxon Abduqayumov
va Gulshirin Ravshanova, Mironshoh Pardaboyev,
Samandar Magdiyev, Shohida Shodiyeva kabi
intiluvchan yoshlar tengdoshlariga har tomon-
lama namuna bo'lmoqda.

Quvonarlisi, maqtashga arzigulik yutuqlar
yo'lida maktab jamoasi doimo izlanishda.

Namoz QARSHIYEV,
Jizzax viloyati

Samarqand viloyati, Tayloq tumani maktabi o'quvchilari
gazetamizning doimiy muxlislari. Buni tahririyatimizga peshma-pesh
yuborilayotgan xabarlardan ham bilish mumkin.

«CHOLIQUSHI» MAKTABGA KELDI

Kitob insonning ong-u tafak-
kuri, dunyoqarashini kengayti-
rish bilan birga, boshqa xalqlar
urf-odatlarini-yu an'analari bilan
yaqindan tanishtiradi. Jahon
adabiyoti durdonalaridan biri
bo'lgan «Choliqushi» ham
ana shunday asarlar sirasiga
kiradi. Yosh ustozning hayoti
mohirona qalamga olingan
turk yozuvchisi Rashod Nuri
Guntekinning mazkur asari
taqdimoti Tayloq tumanidagi
17-umumta'lim maktabida
o'tkazildi. Tadbirga yig'ilganlar avvalo, muallifning ijodi, u yozgan qator asarlar orasida
nega aynan «Choliqushi» omma orasida bunchalik mashhur bo'lib ketishining sabablari
haqida suhbatlashdi. Feridening sarguzashtlari o'quvchilar talqinida sahnaga ko'chdi.
Ushbu sahna ko'rinishidan so'ng, «Choliqushi»ni hali o'qib ulgurmagan o'quvchilar bu
kitobni qo'llariga olib, bir bor varaqlab ko'rishadi, albatta.



SHUHRATNING SHUHRATI



17-umumta'lim maktabida nafaqat kitobxonlar, balki sport bilan oshno
tutingan o'quvchilar ham juda ko'p. 11-sinf o'quvchisi Shuhrat Shodi-
yev sportning akademik eshak eshish turi bilan shug'ullanib keladi. U
erishgan yutuqlar talaygina. Jumladan, joriy yil Samarqand viloyatida
o'tkazilgan O'zbekiston chempionati hamda Koreya davlatining Chunju
shahrida bo'lgan musobaqalarda I darajali diplom bilan taqdirlangan.
Shuhrat tirishqoqligi, o'ziga nisbatan talabchanligi hamda o'qishga, sev-
gan mashg'ulotiga bo'lgan mas'uliyati tufayli shunday muvaffaqiyatlarga
erishganini ko'p marta ta'kidlaydi.

Chindan ham, tirishqoqlikda, mehnatsevarlikda gap ko'p. Agar inson o'zidagi
yomon xislatlarni yengib, yaxshi fazilatlarini jamlay olsagina, yuksak marra-
larni zabt etadi.

QORAQALPOQ TOMONLARDA...

Yurtimizning turli go'shalaridagi ilm maskanlarida tahsil olayotgan
tengdoshlaringiz va ular qo'lga kiritayotgan yutuqlar haqida tanishtirishda
davom etamiz. Bu gal Qoraqalpog'iston Respublikasi, Amudaryo
tumanidagi 2-umumta'lim maktabiga sayohat uyushtiramiz.

598 nafar o'quvchi tahsil oladigan umumta'lim
maktabiga Anvar aka Allembergenov rahbarlik
qiladi. 67 nafar o'qituvchi bilimga chanqoq,
intiluvchan o'quvchilarga saboq berishdan
charchamaydilar. Ayniqsa, darslardan so'ng

Jumaboyeva boshchilik qiladigan ingliz tili to'ga-
ragiga o'quvchilar qatnovi yanada ortgan. Maktab
o'quvchilarining sportga bo'lgan qiziqishlarini
esa futbol, voleybol, shaxmat-shahka, yengil
atletika singari to'garak a'zolarining ko'pligidan
ham bilish mumkin.

8-sinf o'quvchisi Sevinch
To'liboyeva shaxmat o'ynash-
ga qiziqadi. Bu borada ko'plab
yutuqlarni qo'lga kiritgan.
Maktabning «Kamalak» tash-
kiloti sardori sifatida faoliyat
ko'rsatayotgan ijodkor qizning
«Onamga», «Qishlog'im» sin-
gari she'rlari tuman gazetasida
chop etilgan. 8-sinf o'quvchisi
Javlonbek Yuldashev esa sport
musobaqalarida qator
muvaffaqiyatlarga erishmoqda.
10-«A» sinf o'quvchisi Valijon
Jumaboyev esa sport bel-
lashuvlari hamda fan olimpi-
adalarida ko'p marta sovrinli



to'garak mashg'ulotlari o'tkaziladigan xonalar
ilmga chanqoq o'g'il-qizlar bilan gavjum bo'ladi.
Mohira Yerjonova ona tili va adabiyot, Sayyora
Masharipova informatika, Jo'rabek Yusupov fizika
fani to'garaklariga rahbarlik qilishadi. Xorijiy tilarni
o'rganish davr talabiga aylangani bois, Zulfiya

o'rinlarni egallagani bois, uni maktabning faxri,
deyishadi.

– Qo'lga kiritayotgan barcha yutuqlar uchun
ustozlardan behad minnatdormiz, – dedi o'quvchi-
lar baralla.

Ozoda TURSUNBOYEVA

RUS TILI FANI OYLI

Rus tilini xorijiy tillarni o'rganishda ko'priki vositasini o'taydi, deyishadi. Shu bois, G'allaorol tumanidagi 58-umumta'lim maktabi o'quvchilari rus tili fan oyligida faol ishtirok etishmoqda.

Oylik davomida o'quv dargohida rus tiliga oid tadbir o'tkazildi. Unda bolajonlar she'rlar aytib, yozuvchilar asarlaridan parchalar o'qishdi. Ayniqsa, o'quvchilar tomonidan tayyorlangan albom, bukletlardan iborat ko'rgazma barchada qiziqish uyg'otdi. Tadbirlarga rus tili o'qituvchisi, Xalq ta'limi a'lochisi Nargiza Xudoyberdiyeva bosh-qosh bo'ldi.

Yuqori sinf o'quvchilari o'rtaida tashkillashtirilgan «Oltin kuz», «Mening sevimli qahramonlarim» mavzularidagi rasmlar, referatlar tanlovi ham qizg'in tus oldi. Ularda to'garak a'zolari va yosh tilshunoslarning ishlari yuqori baholandi. Jumladan, Ozoda Rahmonova, Shohruh Murodov, Muxlisa Po'latova va Sevinch Raimqulovlar g'oliblikni qo'lga kiritishdi va maktab ma'muriyatining faxriy yorliqlariga sazovor bo'lishdi.

Abdulla SAIDOV,
Jizzax viloyati

Toshkent shahar, Yashnobod tumanidagi
198-umumta'lim maktabida xalqimizning sevimli san'atkori To'ti
Yusupova bilan ijodiy uchrashuv bo'lib o'tdi.

UNUTILMAS UCHRASHUV

Dastlab o'quvchilar aktrisaning bolaligi, ijodiy faoliyati haqida to'liqlanib so'zlab berdi. So'ng, navbat ustoz-san'atkorga berildi. Ular bolajonlarga murakkab hayot yo'li, bu kasbni egallash yo'lida chekkan mashaqqatlari haqida aytib o'tdilar.

Ko'pchilik yoshlar aktyorlik kasbini oson deb o'ylashadi. Lekin uning nechog'li mashaqqatli ekanligini san'atkorlar yaxshi bilishadi. Ba'zan uzoq safarlarga chiqishga, ba'zida tunni tongga ulab ishlashga to'g'ri keladi. Ko'pincha berilgan roldagi so'zlarni yodlab, tunlarimni bedor o'tkazaman. Bu kasbning murakkab tomonlari ham shunda, — deydi To'ti Yusupova. — Yoshlik inson umrining eng bebaho davri. Agarda siz yoshligingizda, kuch-qudratingiz borida biror yumushni chin dildan bajarsangiz, uni albat, uddasidan chiqasiz. Bu vaqtda xotirangiz ham mustahkam bo'ladi. Yod olgan matnlar-u she'rlaringiz xotirangizda bir umrga muhrlanib qoladi. Shuning uchun ham yoshlikda olingan



bilim toshga o'yilgan naqshdir.

Shundan so'ng, mehmon o'zlarining yoshlik davri haqida to'xtalib, o'sha payt bilan hozirgi dorilamon zamonnini umuman taqqoslab bo'lmagani, u vaqtlarda bunday sharoitlar bo'lmaganini ta'kidladilar. So'zlari yakunida ustoz ijodkor «Abdullajon» filmidagi roldan lavha ijro etib berdilar.

Muzaffar AHMEDOV

Lesson 47

INGLIZ TILINI O'RGANAMIZ

COUNTABLE AND UNCOUNTABLE NOUNS

COUNTABLE NOUNS

Countable nouns are for things we can count using numbers. They have a singular and plural form. The singular form can use the determiner «a» or «an». If you want to ask about the quantity of a countable noun you ask «How many?» combined with the plural countable noun.

UNCOUNTABLE NOUNS

Uncountable nouns are for things that we cannot count with numbers. They may be the names for abstract ideas or qualities or for physical objects that they are too small or too amorphous to be counted (liquids, powders, gases, etc.). uncountable nouns are used with a singular verb. They usually do not have a plural form.

Example

Singular

One dog
One horse
One man
One idea
One shop

Plural

two dogs
two horses
two men
two ideas
two shops

Examples

Tea
Sugar
Water
Air
Rice
Knowledge

Nodira RASHIDOVA,

The teacher of school № 75 in Namangan city. Namangan region

WHAT IS YOUR SPIRIT ANIMAL?

Mouse	1996; 2008	Generous, imaginative.
Buffalo	1997; 2009	Careful and patriotic.
Tiger	1998; 2010	Sensitive, emotional and rebellious.
Rabbit	1999; 2011	Polite and ready to help.
Dragon	2000; 2012	Fun-loving, gifted.
Snake	2001; 2013	Wise, stingy.
Horse	2002; 2014	Hard-working, friendly.
Goat	2003; 2015	Elegant, always ready to complain.
Monkey	2004; 2016	Witty, self-seeking.
Rooster	2005; 2017	Flashy, fashionable.
Dog	2006; 2018	Critical person.
Pig	2007; 2019	Tolerant, intellectual.

ENRICH YOUR VOCABULARY

I am hungry.
I am thirsty.
I am hot.
I am cold.
I am tired.
I am cross.


I am boiling.
I am worn out.
I am seething.
I am starving.
I am freezing.
I am dying for a drink.

Muhammadsharif FAYZULLAYEV

WHAT TIME IS IT?

It is two sharp — soat roppa-rosa ikki.
It is half past one — soat bir yarim.
A quarter past three — uchdan o'n besh daqiqa o'tdi.
Five minute to one — besh daqiqa kam bir.

Check your knowledge



LET'S EARN ENGLISH PHRASES

I am afraid you are wrong. — O'ylashimcha, adashyapsiz.
If I am not mistaken... — Agar adashmagan bo'lsam...
I did not catch your last word. — So'nggi so'zingizni tushunmay qoldim.
It is a good idea. — Bu yaxshi fikr.
Let's hope for the best. — Keling, yaxshi niyat qilaylik.
It is new to me. — Bu men uchun yangilik.

Ma'mura G'ULOMOVA

Shahnoza tabiatni va jonivorlarni juda yaxshi ko'rardi. Uning dugonasi Gulbahor esa tabiatga befarq edi. Shahnoza mevali daraxtlarning taglarini supurib, barglarini tozalardi, hovlidagi gullarni parvarish qilardi. Gulbahor esa ko'proq vaqtini ko'chada o'yin-kulgi bilan o'tkazardi.

Bir kuni Shahnoza dugonasiga:

— Kel, daraxtlar tagini birga tozalaylik. Shunda ular yanayam ko'rkam, hovli va ko'chalarimiz chiroyli, obod bo'ladi. Tabiat bizga rahmat aytadi, — dedi.

Ammo Gulbahor rozi bo'lmay ko'chaga chiqib ketayotganda, uning onasi:

— Qizim, daraxtlarning tagini supurib qo'ygin, — deb qoldi.

Gulbahor noiloj onasining gapini ikki qila olmay, ishga kirishdi. Shahnoza ham o'z hovlisi, ko'chasini supurib, chelakda suv olib, yon-atrofga sepib chiqdi. Ular ishlarini bitirib bo'lgandan so'ng, Shahnoza:

— Barglarni yerga ko'mamiz, shunda havoga zarar yetmaydi, — dedi.

Gulbahor e'tiroz bildirdi:

— Yerni kavlal, yana ko'mib qo'yish kerak. Ishni ko'paytirib nima qilasan? Yaxshisi, ularni yoqib yuboramiz. Tezda yonib ketadi, — dedi.

Ikki dugona biroz bahslashib qolishdi va har kim o'ziga ma'qul kelgan ishni qiladigan bo'ldi. Shahnoza barglarni yerga ko'mdi. Gulbahor esa yoqib yubordi. Ular ishlarini bitirib, uylariga kirib

ketishdi. Gulbahor yonayotgan barglarni nazoratsiz qoldirgani uchun olov bir zumda daraxtlarni ham qamrab oldi. Buni ko'rgan qo'ni-qo'shnilar o'tni arang o'chirishdi, ammo anchagina mevali daraxt nobud bo'lgandi. Bu holdan Gulbahorning ko'zlariga yosh keldi, undan ota-onasi

h a m

ranjidi. Shoshqaloq qiz xatosini tushunib yetdi va ulardan kechirim so'rab, yangi ko'chatlar olib kelib, bog' yaratib berishlarini iltimos qildi. Gulbahorning ona-onasi rozi bo'ldi.

Shu voqeadan keyin uning ona tabiatga bo'lgan munosabati o'zgardi. Shahnoza bilan ham yanada inoq bo'lib ketishdi. Ikki dugona yangidan ekilgan nihollar va turli-tuman gullarni mehr bilan parvarish qila boshlashdi.

Tez orada ularning ko'cha va hovlilari yanada fayzli bo'ldi. Endi bu hovlilardan qushlarning chug'ur-chug'uri, yoqimli xonishi eshitilib turadi. Kapalak va asalarilar guldan gulga uchib-qo'nib, ko'zlarni quvnatadi.

Hidoyat AHMEDOVA,
Toshkent viloyati,
Bekobod tumanidagi
37-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi



KITOB KAMOLOTGA YETAKLAYDI

Kitob – sodiq do'st. Katta-yu kichikning eng yaxshi maslahatchisi, ishonchli hamrohi va dono suhbatdoshidir. Chunki kitob beminnat tarbiyachi, odob-axloq me'yorlarini o'rgatuvchi qimmatli ma'naviy manba hisoblanadi.

Biz bolaligimizdanoq o'qib-o'rganib kelayotgan ertaklar, rivoyat va hikoyatlar zahirida, albatta, biror tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan fikr mujassam. Masalan, «Uch og'a-ini botirlar» ertagida mardlik, halollik, rostgo'ylik ulug'lanadi. «Ochil dasturxon» ertagida har qanday boylikka, rizq-nasibaga faqat halol mehnat bilangina erishish mumkinligi sodda, ravon, xalqona tilda tushuntiriladi. Alisher Navoiyning «Hayrat ul-abror», Yusuf Xos Xojibning «Qutadg'u bilig», Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloq», Kaykovusning farzandlariga atab yozib qoldirgan «Qobusnoma» kitobi ayni odobnomaning o'zginasi. Men shu kunlarda O'tkir Hoshimovning «Dunyoning ishlari» asarini qayta o'qiyapman. Adulla Oripov, Erkin Vohidov, Omon Matjon, Halima Xudoyberdiyeva, Muhammad Yusuf, Matnazar Abdulhakimning she'riy kitoblarini sevib mutolaa qilaman. Ulardan ruhlanib, o'zim ham she'rlar mashq qilib turaman.

Bizning o'quv dargohimizda ham «Eng faol kitobxon», «Eng ko'p she'r biladigan o'quvchi», «Otam, onam va men – kitobxon», «Kitob – bizning do'stimiz» kabi tadbirlar, tanlovlar o'tkazilmoqda. Bu tadbirlarda men ham faol qatnashishga harakat qilyapman. Tengdoshlarimga bir tilagim bor: bo'sh vaqtingizni televizor ekrani yoki internet qarshisida o'tkazmang, uyali telefonda uzoq, keraksiz mavzularda suhbatlashishga sarflamang. Vaqt g'animat. Bizni kelajak, ona Vatan kutmoqda!

Xayrinisa JUMANIYAZOVA,

UrDU akademik litseyining 3-bosqich o'quvchisi

SABOQ

(Hikoya)



«TEMURBEKLAR MAKTABI»

(Davomi.)

Boshi o'tgan sonlarda)

OTANG BOZOR, ONANG BOZOR

— Gulchehra, o'g'lingning maktabidan ota-onalar majlisiga chaqirishyapti. Sinf rahbari alohida tayinladi. Ikkimizdan birimiz borishimiz shart ekan, — dedi peshonasini tirishtirib Sobit aka.

— Yana pul-mul yig'ishayotgandir-da. Shunaqa dardi bo'lsa, Sardordan aytib yuboraversa bo'lardi-ku, — dedi ensasi qotib Gulchehra opa.

— Yo'q, «O'g'lingizning xulqi haqida jiddiy gaplashib olishimiz kerak», dedi. Yana bir baloni boshlamagan bo'lsin-da, bu erkatoying, — dedi «uf» tortib Sobit aka.

— Nega mening erkatoyim bo'larkan? Nima, sizning o'g'lingiz emasmi?

— Senga birov mening o'g'lim emas, deyaftimi? Bitta-yu bitta o'g'il deb juda erkalatvording deyaftman. Og'zidan chiqqanini zumda muhayyo qilding. Koyisam, «O'zi bittagina bolam bor!» deb oraga tushding.

— E, elburutdan vahima qilavermang. O'zi o'qituvchi xalqi sal vahimachiroq bo'ladi. Boring, gaplashib ko'ring. Balki xavotir oladigan hech gap yo'qdir.

— Gulchehra, sen onasan. O'qituvchisi ham ayol. Bir-birlaringning tillarini yaxshiroq tushunasizlar. O'zing borib kela qol.

— Men ona bo'lsam, siz otasiz.

O'g'il bolalarning tarbiyasiga birinchi navbatda ota mas'ul. O'zingiz boring.

— Mening ishimni bilasan-ku. Ular sal qo'pollik, be'tiborlik qilsa, mijozlar boshqa oshxonaga ketib qoladi. Hozir nima ko'p – oshxona ko'p.

— Voy-voy, bu kishining gaplarini qarang. Sizda bor ish bizdayam bor. Sizda bor mijoz bizdayam bor. O'zingiz ko'rgansiz, do'konimning qavatida yana bir nechta do'kon qatorlashib turibdi.

— Mijozlaringga sheriging qarab turar.

— Voy, nimalar deyapsiz?! Uning nomi sherik. Aslida konkurent – raqobatchi. Savdoda sherik bo'larkanmi? Birinchi navbatda o'zinning molimni o'tkazay deydi-da.

— Xullas, bormaysanmi?

— Bormayman, dadasi. Jon deb borardim-u, ilojim yo'q, vaqtim yo'q.



Ularining tortishuvini eshitib, qo'shni xonadan oliftalarday kiyingan Sardor chiqib kelib, zarda bilan:

— Oyi, dada, qo'yinglar, urish-manglar. Har galgidek ularning vaqtlari yo'q ekan, gapingizni menga aytib qo'ya qolarkansiz deymen, — dedi.

Sobit aka o'g'lining gapidan xijolat chekib, o'zini oqlagan bo'ldi:

— Bolam, nega unday deysan? Biz shunchaki qay birimiz borishimizni maslahat qilayotgan edik. Mayli, oyingning vaqti bo'lmasa, o'zim boraman. Har doimgiday seni maktabingga tashlab o'taymi?

Sardorning chiroyi ochilib:

— Mayli, dadajon! — dedi.

Onasi o'zini noqulay sezib:

— Xohlasang, bu safar men oborib qo'yaman, o'g'lim, — dedi.

Sardor biroz o'ylanib:

— Yo'g'-e, sizning yo'lingizga teskari-ku, — dedi.

(Davomi bor)

Mamlakatimizda sport musobaqalarini o'tkazish, iqtidorli sportchilarni saralash va ularni maqsadli tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Natijada, ko'plab iqtidorli yoshlarimiz xalqaro musobaqalarda yuksak g'alabalarni qo'lga kiritmoqda.

ISHTIYOQ G'ALABAGA UNDAYDI

Farg'ona viloyatining Beshariq tumandagi 44-umumta'lim maktabi o'quvchilari sportning boks, mini-futbol, yengil atletika, voleybol va stol tennisi kabi turlari bilan muntazam shug'ullanib kelmoqda. O'quvchilar boks sirlarini ustoz Jo'rabek Begmatovdan, mini-futbolni Murodjon Dadaboyevdan, voleybolni Dilmurod Mavlonovdan, stol tennisini esa Jamshid Qurbonov kabi ustozlardan katta ishtiyoq bilan o'rganmoqda.

Yaqinda tumandagi 52 ta maktab o'quvchilari ishtirokidagi «Bola-jon» sport musobaqasida maktabning 4-sinf o'quvchilaridan iborat terma jamoa mini-futbol bo'yicha chempionlikni qo'lga kiritdi. Yengil atletika bellashuvlarida 4-«V» sinf o'quvchisi Asrorbek Haydaraliyev 60 metrga yugurish musobaqasida 2-o'rinni egalladi.

Jamoamiz ushbu musobaqada g'olib bo'lganidan juda xursandmiz, — deydi 4-«G» sinf o'quvchisi, jamoa sardori Ozodbek Nazarqulov. — Izzatbek, Ozodbek va Mirali kabi maktabdoshlarim bahslarda chaqqonlik ko'rsatib, jamoamizning chempion bo'lishida o'z hissalarini qo'shdi. Qadimgi yunon faylasufi Plutarx «Hayot harakatni talab qiladi», deb yozgan edi. Zero, inson mehnatsevar, chidamli, dovyurak va jasur bo'lish uchun ham sport bilan muntazam shug'ullanishi kerak.

Nodira NAZAROVA

CHEMPION NABIRALAR

Aziz bolajonlar! Bugun sizni uch chempion opa-singillar bilan tanishtirmoqchimiz. E'tiborli jihati, ularning buvasi Sultonxo'ja ota Ibragimov ham og'ir atletika bo'yicha jahon chempioni bo'lgan.

Uzoq yillar mobaynida sport maktabiga rahbarlik qilgan boboning izidan borgan nabiralar ham sportning turli yo'nalishlarida chempionlikka erishmoqda. Ulardan biri Muxlisa Sultonxo'jayeva poytaxtimizning Yunusobod tumandagi 273-umumta'lim maktabining 11-«A» sinf o'quvchisi, taekvando bo'yicha yurtimizda bo'lib o'tgan turli musobaqalarda 1-o'rinni egallagan.

— Murabbiyim Shahboz Tirka-shov biz bilan muntazam shug'ullanadi, — deydi qahramonimiz.

— Yaqinda Andijonda bo'lib o'tgan «Mustaqillik» kubogida g'oliblikka erishib, ustozimning ishonchini oqladim. Sport meni irodali, sabrli, sog'lom bo'lishimda katta ahamiyatga ega. Singlim Mubina ham endigina 1-sinfda o'qiyotganiga qaramay, taekvando bilan jiddiy shug'ullanmoqda.

Muxlisaning opasi Munisa esa aikido bo'yicha chempion. O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti muvaffaqiyatli tamomlagan opa bugun singillariga har tomonlama namuna. Ustozlik maqomiga erishib, poytaxtimizdagi 258-umumta'lim maktabida jismoniy tarbiya fanidan dars berayotgan Munisa Ibragimovning o'quvchilari u bilan haqli ravishda faxrlanishadi.

Mahmuda ZOIRXON qizi

GIMNASTIKACHILARIMIZ TENGSIZ

Portugaliyaning Sangalos shahrida badiiy gimnastika bo'yicha «Atlantic cup» nomli xalqaro musobaqa bo'lib o'tdi.

Turnirda mamlakatimiz sharafini jahonning 10 ta mamlakatidan kelgan eng sara yosh gimnastikachi qizlar safida Osiyo Tojiyeva va Gulchehra Sobirova halqa bilan mashqlarda oltin, anjomsiz mashqlarda bronza medaliga sazovor bo'ldi. Osiyo Tojiyeva esa oltin medalni qo'lga kiritib, shohsupaning eng yuqori pog'onasiga ko'tarildi. E'tiborlisi, atletlarimizning ishtiroki muxlis-u mutaxassislarda juda katta taassurot qoldirdi.

Qizlarimiz 2011- va undan keyingi yillarda tug'ilgan gimnastikachilar o'rtasidagi ko'pkurash bahslarida bronza medallariga ega chiqdilar.

GULRUHBEGIM BARCHANI LOL QOLDIRD

Rossiyaning Xanti-Mansiysk shahrida shaxmat bo'yicha ayollar o'rtasida nokaut tizimidagi jahon chempionati davom etmoqda.



Quvonarlisi, ushbu dunyo birinchiligidagina Vatanimiz sharafini ayollar o'rtasida xalqaro grossmeyster, yosh iqtidor egasi Gulrubbegim Tohirjonova munosib himoya qildi.

Shaxmatchimiz musobaqa davomida juda kuchli shaxmatchilarni mag'lub etib, chorak final bosqichiga chiqdi. Aytish mumkinki, Gulrubbegim qo'lga kiritgan yutuqlar ko'pchilik uchun kutilmagan hol bo'ldi. Chunki unga ro'baro' bo'lgan raqiblar dunyo shaxmat olamida o'z o'rnini va so'ziga ega sportchilar edi. Quvonarlisi, yosh vakilimiz murosasiz qarama-qarshiliklarda o'zini yo'qotib qo'ymadi.

Chorak finalda shaxmatchimizni yana bir mohir sportchi, amaldagi jahon chempioni — xitoylik Szyuy Venszyun kutib turardi. Afsuski, ushbu bahsda omad Chin o'lkasi vakilasiga nasib etdi. Shunga qaramay, Gulrubbegim Tohirjonovaning jahon chempionatidagi ishtirokini muvaffaqiyatli deysish mumkin. Sababi, shu paytgacha o'zbekistonlik ayol shaxmatchilardan hech biri jahon chempionatining yarim final ostonasiga qadar yetib kelmagan edi.

S. TURSUNOV

QUVALIK G'OLIB SPORTCHILAR

Toshkent shahrida akrobatika va trampolin sport turlari bo'yicha Xalqaro turnir va O'zbekiston Kubogi bo'lib o'tdi.

Ushbu nufuzli musobaqada Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston va Erondan kelgan iqtidorli sportchilardan tashkil topgan terma jamoalar hamda respublikamiz viloyatlari sportchilari ishtirok etdi.

Turnirda Quva tumani bolalar o'smirlar sport maktabi o'quvchilari munosib qatnashib, faxrli o'rinlarni qo'lga kiritdi. Jumladan, akrobatika bo'yicha ikki juft o'smirlar o'rtasida Anvarjon G'ofurov va Ziyodillo Qurbonov 1-o'rinni, O'zbekiston Kubogi chempionati musobaqasida 3-o'rinni egalladi. To'rt juft o'smirlar bahslarida Hikmatillo Ibrohimov jamoasi 3-o'rinni zabt etdi.

O'zbekiston Kubogi chempionatida mamlakat terma jamoasi a'zosi Samirbek Usmonov batutda sakrash bo'yicha yakka tartibda hamda sinxron sakrash bo'yicha 1-o'rinlarni egalladi.

Sportchilarning yuqori natijalarga erishishida murabbiylar — Ozodaxon Po'latova, Ahrorbek Qodirov, Ixtiyor Ergashev, Alimjon Teshaboyev va Dilmurodjon Po'latovlarning xizmati katta bo'ldi.

Muhammadsodiq ALIMOV





BEBAHO TUHFA

Kuni kecha Bahrom aka-ning «Husnixatim chiroyli» nomli she'riy to'plami o'n ming nusxada «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.

Kitobda lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosidagi har bir harfga she'r yozilib, rasm chizilgan. Mazkur to'plamdagi unli tovushlar qizil rangda, undosh tovushlar esa havorangda berilgan. U o'quvchining qiziqishini yanada oshiradi. Keling, yaxshisi, ushbu to'plamdan joy olgan to'rtliklardan siz ham bahramand bo'ling.



Mana sizga so'zlarimning isboti. Bahrom Akbarovning qolgan yaxshi she'rlarini, albatta, uning «Husnixatim chiroyli» nomli kitobidan topib o'qiydiz, degan umiddamiz.

Aziz o'quvchilar! Siz bolalarning sevimli shoiri Bahrom AKBARning ijodi bilan yaqindan tanishsiz. U «Tong yulduzi» gazetasining quvnoq o'quvchilariga o'zining o'ynoqi satrlarini doim ilinib turadi.

B b

Bo'ri xursand kuladi,
Burgut kelgach yoniga.
Bugun ikkov do'st bo'lib,
Borar quyon oviga.

J j

Jo'rayovning jo'jasi,
Juda maqtanchoq.
Jo'jaro'z demang deb,
Qichqirar har choq.

Ch ch

Chigirtka va chumoli,
Don talashib qoldilar.
Chumchuq hakam bo'lsin, deb,
Xatoga yo'l qo'yidilar.

MAZALI NON BO'LAKLARI

Pazanda qizga!



Ko'pincha yosh bolalarning oyisiga, «Kiriyeshki olib be ring», deya yotganini eshitaman. Bunday turdagi mahsulotlarga turli kimyoviy ozuqa moddalar aralashtirilganiga qaramay, katta-yu kichikning sevimli yeguligiga aylanib ulgurani sir emas. Bilasizmi, «kiriyeshki»larni uy sharoitida ham tayyorlash mumkin. Bugun sizlarga ana shu yegulikning tayyorlanish usulini o'rgataman. Buning uchun bizga istalgan turdagi non (ushatilgan non bo'laklari ham bo'ladi), ozgina tuz yoki shakar kerak bo'ladi.

Ba'zilar «Galina blanka» qo'shadi. Ammo uning tarkibida kimyoviy ozuqa qo'shimchalari mavjud.

Endi ishini nonni mayda bo'laklarga bo'lishdan boshlaymiz. Maydalangan nonni gaz patnisiga bir tekisda yoyamiz, ustiga oz miqdorda mayda tuz (agar shirinini xush ko'rsangiz, 2 oshqoshiq shakar eritmasi)ni non bo'laklari ustiga bir tekisda sepamiz va gaz pechiga qo'yamiz. Yodingizda bo'lsin, non bo'laklari juda yupqa bo'lgani uchun tezda quyib ketishi mumkin. Shuning uchun uni nazorat qilib turishingiz kerak bo'ladi. Non bo'laklari qizara boshlagach, ularni yana bir bor aralashtirib, qaytadan gaz pechiga qo'yamiz. Bu usul non bo'laklarini bir tekisda qizarishi hamda qarsildoq bo'lishini ta'minlaydi.



AXTAMQULI

DUNYONING ENG CHIROYLI MAKTABLARI

Maktab binosi va o'quv xonalarining ko'rinishi o'quvchilarning ta'lim olishiga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin ekan. Shu darajadagi, Amerika arxitektura instituti (AIA) bu borada maxsus qo'mitaga ega bo'ldi. U dunyoning eng yaxshi o'quv muassasalari me'morchiligini o'rganish va fikr almashish maqsadida tuzilgan. Qo'mita 2017-yilgi Design Facility Design Award uchun eng chiroqli innovatsion o'quv dargohlarini tanladi. Quyida ushbu muassasalar suratlari va ularga oid ba'zi ma'lumotlar bilan tanishasiz.



Tokiodagi Fyujii bolalar bog'chasi. Bu yerda xonalarning o'rtasida ham daraxt o'sib chiqqan bo'lishi mumkin. Ochiq kengliklar jamoaviy xatti-harakatlar uchun ayni muddao.

Los-Anjelesdagi 9-sonli o'rta maktabda o'quvchilar har xil xonalarda tahsil olishadi. Shunga qarab, qanday o'quv muhiti o'quvchilarning yaxshiroq bilim olishi uchun xizmat qilishini o'rganish mumkin.



Ispaniyadagi Roldan shaharchasida joylashgan davlat maktabi yashil «gilam» bilan qoplangan. Har bir xona muayyan yo'nalishda ta'lim olishga mo'ljallangan.

Internet manbalari asosida
Sherali TOSHNIYOZOV tayyorladi

TOPILSH MOQLAR



Zুমрад MASHARIPOVA,
Xorazm viloyati,
Yangibozor tumanidagi
3-umumta'lim maktabining
boshlang'ich sinfi o'qituvchisi

Yerga qadalar urug',
Bo'lar so'ngra boshqoq don.
Dasturxonga eng ulug',
Ne'mat erur shirmoy ...



Ilm berar bizlarga,
Dono o'g'il-qizlarga.
Mazmun unda behisob,
Javobini o'ylab top!



FOYDALI MASLAHATLAR

1 Muntazam ravishda tish cho'tkalari turadigan idishni issiq suv va sovun bilan yuving. Chunki bu idish bakteriyalarning vannaxonadagi eng sevimli joyi hisoblanadi.

2 Har hafta rakovinaning suv oqadigan quvurini xlorli vosita bilan yuving. Bu chora ifloslanishning oldini olish uchun zarur. Qolaversa, xlor bakteriyalarni o'ldiradi, shuning uchun rakovinani suvga to'ldirib va 1 stakan xlorli vosita quyib. 10 daqiqadan so'ng, suvni oqizib yuboring.

3 Yoqimsiz hidni ketkazishning eng yaxshi yo'li vannaning suv oqadigan quvuri ichiga 1 stakan osh sodasi seping, keyin esa 1 stakan sirka quyib. 10 daqiqadan keyin issiq suv bilan yuving.

4 Vannani timyan va evkalipt efir yog'lari bilan yuving. Bu yog'lar oltinrang stafilokokk bilan kurashishda benihoya samaralidir.

Oltinrang stafilokokk – teri infeksiyasini keltirib chiqaradigan bakteriya. Ko'pincha bu dushman bizni vannada kutib turadi, undan xlor yordamida qutulish mumkin. Lekin u zaharli. Eng yaxshi o'rmini bosuvchilar – timyan va evkalipt efir yog'lari hisoblanadi.

NARGIZA tayyorladi

8

19-noyabr 2018



Muassis:

O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligi

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Qahramon QURONBOYEV,
Alisher SA'DULLAYEV,
Laziz TANGRIYEV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA,
Ashurali JO'RAYEV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Nodira NAZAROVA

Rassom
Feruzbek KAMOL o'g'li

Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin
MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosma-
xonasida chop etildi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli
chop etilishiga bosmaxona mas'ul.
Manzillimiz va bosmaxona manzili:
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi,
30-uy. Indeks: 100011.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz
Adadi – 25237
Buyurtma – V2741

Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi
uchun obunani rasmilashstirgan
tashkilot javobgar.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
Bahosi kelishilgan narxda.
Gazeta haftaning dushanba kuni
chop etiladi.
Tophirish vaqti – 18:00
Tophirildi – 18:00
Tel./faks: (99871) 244-63-08